

OILA HAMDA NIKOHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA VA FALSAFADA O'RGANILISHI

Mirkomilov Baxtiyor

JDPU Umumiy tarix kafedrası

professori

Ibragimov Iskandar Zafar o'g'li

JDPU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o'qitish metodikasi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada avvalambor oila hamda nikohga pedagogik-psixologik va falsafiy qarashlar keltirilib, asosan ularga qisqacha ta'riflar, qadimda va hozirda zamonaviy oilalar hamda eng asosiysi oilalar haqida statistik ma'lumotlar yoritilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Oila, nikoh, Hadis, ijtimoiylashuv, er-xotin, ko'p bolalik, ko'p tabaqalilik, tarbiyali oila.

«Oila, hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i...». (Muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov)

Shu fikrning o'ziyoq oilani e'zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko'tarish bizning ongimizga mustahkam jo bo'lganligining yorqin dalilidir. O'zbek oilasi serfandzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'zbek oilasining o'ziga xos etnografik xususiyatlari: ko'p bolalik, ko'p tabaqalilik (bir necha avlod vakillarining birga yashashlari), avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikning boshqa mamlakatlardagina nisbatan kuchliligi va shu kabi qator xususiyatlari uning psixologik ahamiyatini yanada orttirib yuboradi. O'zbekiston dunyoda aholisining soni ancha tez ko'payib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Oila erkak va ayolning nikohdan o'tib, bir yostiqa bosh qo'ygan kunidan boshlanadi. Uning eng muhim vazifasi naslning davom ettirish hamda ota-bobolarning eng yaxshi an'ana va udumlarini davom ettirish, turmushni mustahkamlashdan iboratdir. Oilani fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi deyishadi.¹ Chunki har bir jamiyat a'zosi, bo'lajak fuqaroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila uch jihatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni; bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi. Nikoh va muhabbat.

¹ Falsafa fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yuzasidan institutning 1-kurs bakalavr bosqichining barcha yo'nalishlari uchun uslubiy ko'rsatma. P.Qulmatov va Q.Razzoqov Jizzax-2019

Avvalo, nikoh haqida to‘xtalib o‘taylik. Qonunga binoan nikoh tuzish shartlaridan eng muhimlari - nikohga kiruvchilarning o‘zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga etganliklari. Bizda yigitlar uchun - 18, qizlar uchun - 17 nikoh yoshlari qilib belgilangan. Bu - masalaning huquqiy tomoni. Uning ikkinchi - axloqiy tomoni ham borki, u muhabbat bilan bog‘liq. ²Nikoh tuzishdan avval ikki yosh orasida goh ochiq sevgi - muntazam uchrashuvlar, ahdu paymonlar qilish yoki orqavorotdan bir-birini yoqtirish hollari bo‘lishi mumkin. Har ikkala holda ham rozilik o‘zgarmas shart hisoblanadi. Ba‘zan qadimda Sharq xalqlarida, shu jumladan, o‘zbeklarda qizning yoki yigitning rozilgisiz to‘y qilib yubora berishgan, otalari kelishishsa – bas, degan fikrlarni uchratadi kishi. Ayniqsa, bunday gaplar sho‘rolar davrida tinimsiz takrorlanar edi. Vaholanki, bunday hol kam bo‘lgan, uni musulmonchilik inkor etadi. Rivoyat qilishlaricha, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom uylariga sovchi kelganida, qizlari Fotimadan doimo rozilik so‘raganlar va rad javobi olganlar. Faqat Hazrat Ali sovchi qo‘yganlarida, Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandning roziligini olish bizga Payg‘ambarimizdan qolgan sunnat. Hozirgi kunda ham ko‘pgina yoshlarimiz sovchi orqali turmush quradilar. ³Odatda sovchi kelib ketgach, yigit bilan qiz uchrashtiriladi, ikkalasi bir-birini ma‘qul ko‘rsagina fotiha qilinib, to‘y taraddudi ko‘riladi. Juda ko‘p hollarda bunday yoshlar o‘rtasida keyinchalik haqiqiy muhabbat shakllanadi. Buning ustiga, oilaviy muhabbat ma‘lum ma‘noda salobatli, ko‘proq yashirin tarzda namoyon bo‘ladi. Demak, falsafa ilmida oilaning asosi bo‘lmish nikoh - ezgu maqsadga yo‘naltirilgan, zimmasiga zurriyot qoldirishdek yuksak mas‘uliyat yuklangan sevgi, sevdaning ijtimoiylashgan ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi. Biroq sevgi-muhabbat faqat erkinlikda namoyon bo‘ladi. SHu jihatni nazarda tutadigan bo‘lsak, nikohni, ma‘lum ma‘noda, an‘analari, urf-odatlar va e‘tiqodlarga moslashtirilgan sevdaning yashash sharti deyish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, nikoh zaruriyatga aylangan erkinlikdir. Shu bois nikohga kirayotgan har bir kimsa bundan buyon o‘z erkinligining boshqa bir erk bilan kelishib yashashini, ixtiyoriy tarzda cheklanib, nisbiylashgan holda mavjud bo‘lishini anglab etmog‘i lozim. ⁴Bundan tashqari nikoh o‘z mohiyatiga ko‘ra axloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa bo‘ysundiriladi. Oddiy birga yashashda esa tabiiy ehtiyojni qondirish birinchi o‘rinda turadi, nikohda u ikkinchi darajali mavqe egallaydi. Sharq oilasiga xos xususiyat esa oilalarning mustahkamligi, kishilarning oilaviy hayotdan tashqarida yashashni tasavvur qila

² OILA PSIXOLOGIYASI Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. (B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog‘inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova) TOSHKENT – 2008

³ IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan 5110900 — Peda- gogika va psixologiya bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. N.Ismoilova D.Abdullayeva. Toshkent — 2013

⁴ IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan 5110900 — Peda- gogika va psixologiya bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. N.Ismoilova D.Abdullayeva. Toshkent — 2013

olmasligi, oilaparvarligi, jamoa bo‘lib yashashning ustunligi, serfarzandligi, bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, Islom dinining muqaddas manbalaridan bo‘lmish Qur‘on va Hadislarda ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o‘rni va vazifalari, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat m asalalariga keng o‘rin berilgan. Quyida hadislar to‘plamidan bir necha misollar keltiramiz: «Tangri nazdida bandalarning eng yaxshisi o‘z ahli-ayoliga foydasi ko‘p tegadigan kishidir» (18-hadis), «Odamlar ichida xotin kishiga nisbatan haqlirog‘i uning eridir. Erkak kishiga nisbatan odamlarning haqlirog‘i - bu uning onasidir» (34- hadis) «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz» (38-hadis); «Qachonki er o‘z xotiniga va xotin o‘z eriga qarashsa, Tangri ham ularga rahmat nazari bilan qaraydi, bordi-yu kaftini kaftiga qo‘ysa, barmoqlari orasidan gunohlari duv-duv to‘kiladi» (44-hadis); «Sizlarning har biringiz bamisoli cho‘pondirsizlar va o‘z qo‘l ostingizdagilarga mas‘uldirsizlar, Podshoh o‘z fuqarolariga, er o‘z ahli ayoliga, xotin erining uyiga, xodim o‘z xojasi moliga, farzand o‘z otasi mulkiga mas‘uldir. Demak har birlaringiz mas‘uldirsizlar» (116-hadis); «Hech bir ota o‘z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi (136-hadis). Keltirilgan namunalardan ko‘rinadiki, demak diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, erkak va ayollarning oila oldidagi burch va mas‘uliyatlari, otaonaning bola va o‘z navbatida farzandning ota-onasi oldidagi vazifalari, urning xotiniga hurmat va e‘zosi muqaddas qadriyatlar sifatida qaralgan ekan.⁵

Shunday qilib, har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, butun organizm o‘z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o‘rni bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Ma‘lumki, dunyoga kelgan go‘dakning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Aynan shu maskan quchog‘ida bola ijtimoiy muhitga moslashib, ijtimoiy me‘yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Shular asosida ijtimoiy hayotga kirib boradi. Farzand oilada kamol topar ekan, u oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlaridan doimo ibrat oladi. Shular zaminida u boshqa kishilarning xulq-atvori, xattiharakatlarini o‘rganib, farqlay boshlaydi va ular bilan munosabatga kirishishi, muloqotda bo‘lishining usul va shakllarini o‘rganib boradi. Aynan oila bag‘rida bola boshlang‘ich ijtimoiylashuvni oladi. Oila a‘zolarining munosabatlari misolida u boshqalar bilan muloqot qilishga o‘rganadi, xulq-atvori va munosabatlar

⁵ OILA PEDAGOGIKASI O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov, Rokk Kemibell, Sh.K.Toshpo‘latova, M.Sh.Nurmatova, X.JJabborova, NJamilova, Sh.Egamnazarova, N.Qayumova, M.M.Pirmuhamedova, L.A.Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova, M.A.Rasulxo‘jayeva, R.Avezova. TOSH KENT – 2007.

shakllarini tushunib boradi va bu tushunchalari uning o‘smirlik va balog‘at yillarida ham saqlanib qoladi. ⁶Ota-onaning farzandini noto‘g‘ri xatti-harakatiga nisbatan reaksiyasi, otaonalar o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri, oiladagi garmoniya yoki disgarmoniya darajasi, qondosh aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri oilada va undan tashqarida bola agressiv xulq-atvorini belgilab beruvchi hamda uning balog‘at yillarida atrofdagilar bilan quradigan munosabatlari-ga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Bola uchun oilada ham ota, ham onaning bo‘lishi zarurati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va uning oilada o‘zini tutishiga qarab, o‘zini ayollar jinsiga taalluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo‘lishini tasavvur qilsa, otasiga, uning onasiga bo‘lgan munosabatiga qarab, o‘zini kelajakda oila qurganda qanday oila sohibasi bo‘lishi lozimligini anglab boradi. Xuddi shunday, o‘g‘il bola onasining fazilatlari, oiladagi tutimi va otasiga munosabatini idrok qilib borar ekan, kelajakda qanday qiz bilan turmush qurish mumkinligi, tanlaydigan qizi qanday sifatlar sohibasi bo‘lishi lozimligini bilib borsa, otasi va uning oilada mavqeiga qarab, o‘zini erkak sifatida kelajakda tasavvur qilish bilan birgalikda turmush o‘rtog‘iga qanday munosabatda bo‘lish lozimligi to‘g‘risida bilim va tasavvurlarini orttirib boradi. Bu psixologik qonuniyat bo‘lib, shaxsning oiladagi shaxsiy va jinsiy sotsializatsiyasining yetakchi tamoyili hisoblanadi. Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhiti hamdir.⁷

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 1998-yili O‘zbekistonda 3,8 million oila bo‘lib, shundan 58,7 foizini 5 va undan ko‘p bolali oilalar tashkil etgan. Keyingi 35 yil ichida oilalar soni 1,8 milliontaga ko‘paygan, uning 1 mln.ga yaqini shahar, 950 mingtasi qishloq oilalariga to‘g‘ri keladi. Yoki so‘nggi 10-15 yil davomida yiliga 250 ming atrofida yosh oilalar vujudga kelgan. Bugungi kunda Respublikamizda har bir oilaga taxminan 4-5 farzand to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston oilalarining 35 foizdan ortig‘ini yosh oilalar tashkil qiladi. Yosh oilalar deganda, er va xotinning yoshi mos ravishda 26— 30 yoshdan oshmagan, 5 yilgacha nikohda bo‘lgan, bolali yoki bolasiz oilalar tushuniladi. Mamlakat aholisining 43 foizini 15 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Oilalar soni o‘sib borishida, ayniqsa, Qashqadaryo, Jizzax, Xorazm va Namangan viloyatlari alohida o‘rin tutadi. Nikohdan o‘tish bo‘yicha O‘zbekistonda 1980-yilda 173 ming 628 ta, 1989-yilda 200 ming 661 ta, 1996-yilda esa 171

⁶ ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI. OILA PEDAGOGIKASI. (o‘quv qo‘llanma) (5110900 – Педагогика ва психология) ISHANOVA M. Andijon-2019

⁷ ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI. OILA PEDAGOGIKASI. (o‘quv qo‘llanma) (5110900 – Педагогика ва психология) ISHANOVA M. Andijon-2019

ming 700 ta nikoh qayd etilgan. Bunda qishloqlarda shaharlarimizga nisbatan salkam 2 baravar ortiq yoshlar nikohdan o‘tishgani ma’lum.⁸

Keyingi paytlarda xalqimizning ma’lum tabaqalari o‘rtasida soxta shuhrat ketidan quvib, nom chiqarish, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, keragidan ortiq dabdaba bilan nikoh to‘yi o‘tkazish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish hollari ko‘payib qolgan edi. Bu esa muqaddas an‘analarimizni obro‘sizlantirishga olib kela boshladi va oddiy odamlarning nafsoniyatiga tegar edi. Oqibatda ko‘p oilalar buzilib ketdi. Mamlakatimiz 1-Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil 28-oktyabrda qabul qilgan farmoni to‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni, marhumlar xotirasiga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishda dabdababozlik, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yish kabi illatlarga barham berishni katta vazifa qilib qo‘yadi.

Oila qurmoqchi bo‘lgan har bir yigit-qiz o‘ziga umr yo‘ldoshi tanlashda bo‘lajak farzandlarining otasi yo onasining shaxsiy fazilatlariga e’tibor berishi kerak. Chunki otaning axloqi, odobi, onaning fazilatlariga bolaga o‘tishi isbot talab qilmas haqiqatdir. Xullas, o‘g‘il ham, qiz bola ham, eng avvalo, oila muhitida g‘uncha ochadi. Ana shu g‘uncha uning ma’naviyatida, qalbida bir umr yo‘lchi yulduz kabi nur sohib turadi. Rizouddin ibn Faxriddinning «Oila» risolasida: «Tarbiyali xotin ota-onasini, eri hamda bolasini, butun oila ahlini oilaga munosabati bo‘lgan do‘st-u qo‘shnilarini, xodim-u xodimlarini xulqi bilan mamnun qilur», - deyiladi.⁹

Xulosa qilib aytganda, insonning ma’naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi. Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo‘lsa, noto‘g‘ri tarbiya uning uchun chinakamiga baxtsizlikka, hatto, halokatga aylanishi mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda maktab tarbiyasi bilan bir qatorda oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Sababi oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va, aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu holda maktabning ta’lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo‘yadi. Demak, oila va maktab hamkorligi o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi. Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, oila pedagogikasi va psixologiyasi talabalarni, o‘shib kelayotgan yosh-avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashga hamda oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari, tamoyil va metodlariga doir bilimlarni egallashga xizmat qiladi. Demak, inson zotining shakllanishida oilaning o‘rni katta. Chunki ma’naviyat, insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi.

⁸ ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI. OILA PEDAGOGIKASI. (o‘quv qo‘llanma) (5110900 – Педагогика ва психология) ISHANOVA M. Andijon-2019

⁹ Usmonov, M.T. & Shokirov., Sh.H, (2022). Teylor formulasini matematik masalalarni yechishdagi ahamiyati. "«Science and Education» Scientific Journal" Scientific Journal, Tom-3, 19-23.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Falsafa fanidan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish yuzasidan institutning 1-kurs bakalavr bosqichining barcha yo‘nalishlari uchun uslubiy ko‘rsatma. P.Qulmatov va Q.Razzoqov Jizzax-2019

2. OILA PSIXOLOGIYASI Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. (B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog‘inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova) TOSHKENT – 2008

3. IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan 5110900 — Peda- gogika va psixologiya bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. N.Ismoilova D.Abdullayeva. Toshkent — 2013

4. OILA PEDAGOGIKASI O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov, Rokk Kemibell, Sh.K.Toshpo‘latova, M.Sh.Nurmatova, X.JJabborova, NJamilova, Sh.Egamnazarova, N.Qayumova, M.M.Pirmuhamedova, L.A.Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova, M.A.Rasulxo‘jayeva, R.Avezova. TOSH KENT – 2007

5. ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI. OILA PEDAGOGIKASI. (o‘quv qo‘llanma) (5110900 – Педагогика ва психология) ISHANOVA M. Andijon-2019

6. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Teylor formulasini matematik masalalarni yechishdagi ahamiyati. "«Science and Education» Scientific Journal" Scientific Journal, Tom-3, 19-23.

7. Usmonov, M.T. & Shokirov.,Sh.H, (2022). Darajali qatorlarning taqribiy hisoblashlarga tatbiqi. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-3, 29-32.